



THE IMPORTANCE AND PRACTICAL APPLICATION OF NM HEMOSTATIC CLIPS IN MASSIVE OBSTETRICAL BLEEDING DUE TO UTERINE ATONY

Matyakubov Bunyod Bakhromovich

Urgench branch of Tashkent Medical Academy

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17812784>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2025

Accepted: 29th November 2025

Online: 30th November 2025

KEYWORDS

*Uterine atony, massive bleeding,
maternal mortality.*

ABSTRACT

This article will shed light on the causes of maternal death and methods of its prevention due to massive bleeding in obstetrics, which are currently a pressing problem in the world. At the same time, the possibility of maintaining the uterus of the reproductive organ is reflected in ham. The preservation of human life is achieved by removing a woman from the state of postgemorrhagic shock and timely hemostasis.

BACHADON ATONIYASI SABABLI MASSIV AKUSHERLIK QON KETISHIDA NM GEMOSTATIK QISQICHLARINING AHAMIYATI VA AMALIYOTDA QO`LLANILISHI

Matyakubov Bunyod Bakhromovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17812784>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2025

Accepted: 29th November 2025

Online: 30th November 2025

KEYWORDS


*Bachadon atoniyasi, massiv qon
ketish, onalar o'limi.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi davrda dunyoda dolzarb muammolaridan bo'lgan akusherlikda massiv qon ketishi sababli onalar o'limi sabablari va uning oldini olish usullari yoritib beriladi. Shu bilan birga reproduktiv organ bachadonni saqlab qolish imkoniyati xam aks ettirilgan. Ayolni postgemorragik shok xolatidan chiqarish va o'z vaqtida gemostaz qilish bilan birga inson xayotini saqlab qolishga erishiladi.

Gemorragik shok, disseminirlangan tomir ichi qon ivishi va poliorgan yetishmovchiligi bilan kechadigan massiv akusherlik qon ketishi dunyoda onalar o'limi va kasallanishiga sabab bo'luvchi asosiy omillardir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, «...dunyo bo'ylab tug'ilishlar soni yiliga qariyb 140 million kishi darajasida barqarorlashgan» (JSST 2021). Ushbu tug'ilishlarning aksariyati (65%) tabiiy tug'ish yo'llari orqali 500 ml dan 1000 ml gacha fiziologik qon yo'qotish bilan sodir bo'lib, ayollar va chaqoloqlar uchun asoratlarsiz kechadi. Ammo 3–8% holatlarda qon yo'qotish hajmi 1500 ml dan yoki ayol tana vaznining 2,0% dan oshishi mumkinki, bu massiv qon ketish hisoblanadi. Tug'ruqdan keyin patologik qon ketishlar 6-8% ni tashkil qiladi. Shulardan 0,3-1 % gacha massiv akushelik qon ketishlari kuzatilgan. Tug'ruqdan keyin

qon ketishi asosan bachadon atoniyasiga to'g'ri keladi. Massiv akushelik qon ketishidan onalar o'limi mamlakatimizda 2013 yildan 2022 yilgacha bo'lgan davrda 22,8% dan 34,6% gacha oshgan. 2022 yilning o'zida bu ko'rsatkich 39,6% xolatni tashkil qiladi. Yiliga 2,5-3ming nafar ayolda gisterectomiya amaliyoti bajariladi. Bu esa kuniga 7-8 nafar ayolga to'g'ri keladi. (Доклад Зам. Министра Здравоохранений 2022г. Национальный комитет по конфиденциальному исследованию случаев материнской смерти Ташкент 2020г.Национальный комитет по конфиденциальному исследованию случаев материнской смерти .Ташкент 2017г)



O'zbekistonda MAQ ketishidan onalar o'limi strukturalari

Tadqiqot maqsadi. Tug'ruqdan keyin bachadon atoniyasi tufayli massiv akusherlik qon ketishi sababli sodir bo'ladigan onalar o'limini kamaytirish, reproduktiv organ bachadonni saqlab qolish uchun gemostatik qisqichlarni yaratish va amaliyotga tadbqiq etish.

Tadqiqot ob'yekti. Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Xorazm viloyati filialida va viloyat barcha tug'ruq komplekslarida bachadondan atonik qon ketish tashxisi qo'yilgan 170 nafar bemor ayollarni davolash natijalarini o'rganish rejalashtirilgan. Retrospektiv guruhda 2022yildan-2024yilgacha bo'lgan 86nafar bemorlarni tashkil qildi. Asosiy guruhda 2025yildan-2027 yilgacha bo'lgan davrdagi 84 nafar bemorlarni o'z ichiga oladi.

Kutilayotgan ilmiy natijalar va ularning yangiligi. Zamonaviy akusherlik muammolari orasida massiv akusherlik qon ketishi (MAQ) kabi tug'ruq asoratlari yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Quyidagi mezonlar MAQ uchun xarakterlidir: 24 soat ichida UQXning 100% yo'qolishi yoki UQXning 3 soat va undan kamroq vaqt ichida 50% yoki 150 ml/daqqa yoki 3 soat ichida tana vaznining 2% yo'qolishi. Hozirgi vaqtda qabul qilingan «Massiv akusherlik qon ketishi – MAQ» terminini belgilaydigan xalqaro mezonlardan biri quyidagicha: 1500 ml dan ortiq qon yo'qotish, gemoglobin darajasining 4 g/dl dan kam pasayishi, shuningdek, shoshilinch ravishda eritrositar massa 4 birlik hajmdan ortiq qon quyish zarurati (Ищенко А.А. ва ҳаммуаллифлар, 2018; O'Brien K.L., 2016).

Bizning ma'lumotlarga ko'ra, Xorazm viloyati bo'yicha 2023 chi yil davomida 48292 ta tug'ruq sodir bo'lgan. Umumiy qon ketishlar 3765 (8%) bo'lib, shulardan erta atonik qon ketishlar 356 ta (9.4%) ni tashkil qiladi. Bu umumiy tug'ruqlar soniga 0.7% ni tashkil qiladi.

2024 chi yilda 48896 ta tug'ruq sodir bo'lgan. Umumiy qon ketishlar 3689 (7.5%) bo'lib, shulardan erta atonik qon ketishlar 391 ta (10.5%) ni tashkil qiladi. Bu umumiy

tug'ruqlar soniga 0.8% ni tashkil qiladi. Qon ketishlar 1.1% ga oshgan. Onalar o'limi 2023 yilda 6 nafar bolib, 2024 yilda 8 nafarni tashkil qiladi.

Tug'ruq jarayonida va undan keyin bachadon atoniyasi tufayli sodir bo'lgan massiv akusherlik qon ketishining uchrash chastotasi sabablarini va kelib chiqadigan asoratlarini taqqolash va asosiy guruhda o'rganiladi. Ilk marotaba NM gemostatik qisqichlar yaratildi va amaliyotda qo'llash texnikasi yoritib beriladi. Birinchi marotaba bachadon atoniyasida uch juft magistral qon tomirlarni bog'lash usuli bilan taklif qilinayotgan gemostatik qisqichlarning samaradorligini qiyosiy o'rganiladi. Taklif qilinayotgan bachadon tanasiga qo'yiladigan NM gemostatik qisqichlarining bachadon atoniyasida klinik, gemodinamik, va laborator samaradorligini aniqlab boriladi. Olingan natijalar asosida bachadondan massiv atonik qon ketishlarini to'xtatishda 90-95% gacha, bachadonni saqlab qolishni esa 50-60% ga erishiladi. Shu bilan birga NM gemostatik qisqichlarni qo'yish orqali gemostaz qilish bilan birga bachadon tanasiga shikast etkazmaydi.



Rasm 1.



Rasm 2.

Xulosa. Klinik amaliyotda bachadon atoniyasi tufayli sodir bo'lgan massiv akusherlik qon ketishida onalar o'limi kamaytiriladi va reproduktiv organni saqlash uchun ishlatilayotgan gemostatik qisqichlarni samaradorligi aniqlanadi. Qo'llaniladigan gemostatik qisqichlarning tibbiy tavsiflari ochib beriladi va amaliyotda qo'llanilishi ko'rsatiladi.

Bachadon atoniyasida uch juft magistral qon tomirlarni bog'lash usuli bilan taklif qilinayotgan gemostatik qisqichlarning effektivligi o'rganiladi.

Taklif qilinayotgan bachadon tanasiga qo'yiladigan NM (Niyazmetov Matyaqubov) gemostatik qisqichlarining bachadon atoniyasida klinik, gemodinamik va laborator effektivligi aniqlashtiriladi. Ushbu uslubning bachadon atoniyasida massiv akusherlik qon ketishida gemostatik qisqichlarning tibbiy, iqtisodiy va sosial samaradorligi baholanadi. Yaratilgan gemostatik qisqichlarini bachadon atoniyasi sodir bo'lganda qo'llash algoritmini ishlab chiqiladi va amaliyotda qo'llash uchun taklif etiladi.

Chekka hududlarda tug'ruqdan keyingi massiv qon ketishni bartaraf etishda NM gemostatik qisqichlarining ahamiyati shulardan iborat : hozirgi davrda mamlakatimizning ko'plab chekka tumanlarida, hattoki markaziy hududlarda ham malakali jarroh-akusher-ginekologlar yetishmayapti. Bunday holatda, ayniqsa,

tug'ruqdan keyingi (postpartum) massiv qon ketish holatlarida onalarga o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatish kechikmoqda. Statistik kuzatuvlarga ko'ra, bu kechikish onalar o'limining asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, ushbu holatlarda har bir daqiqa muhim ahamiyatga ega bo'lib, zarur choralarni ko'rish uchun atigi 5–6 daqiqa vaqt mavjud.

Shu munosabat bilan, NM (Niyazmetov-Matyaqubov) gemostatik qisqichlarini amaliyotga joriy etish bir qator afzalliklarni beradi:

Ushbu qisqichni bachadon tanasiga o'rnatish uchun malakali jarroh-akusher-ginekolog ishtiroki talab etilmaydi; Qisqich qo'llanilganda bachadon to'qimalari shikastlanmaydi, bachadon qisqarishini nazorat qilish imkoniyati yaratiladi (qarang: rasm 1, 2), magistral qon tomirlarni (masalan, a. uterinae) bog'lashga ehtiyoj qolmaydi, qisqichlar yordamida bachadon yumaloq boylamlari (lig. teres uteri), tuxumdonlarning xususiy boylamlari (lig. proprium ovarii) va bachadon arteriyalari vaqtincha siqib qo'yiladi (qarang: rasm 3).



Rasm 3.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, NM gemostatik qisqichlari: Massiv atonik qon ketishini to'xtatishda 90–95% gacha samara beradi, bachadonni saqlab qolish ko'rsatkichi esa 50–60% gacha yetadi. Bu usul onalar o'limining oldini olishda muhim klinik va ijtimoiy ahamiyatga ega.

References:

1. Carroli G., Cuesta C., Abalos E., Gulmezoglu A.M. Epidemiology of postpartum haemorrhage: a systematic review. Best Pract Res Clin Obstet Gynaecol. 2008; 22(6): 999–1012. DOI:10.1016/j.bpobgyn.2008.08.004 Минздрав кл.руковод 2021
2. Профилактика, лечение и алгоритм ведения при акушерских кровотечениях: Клинический протокол МЗ РФ № 15-4/10/2-3881 от 29.05.2014.
3. Статистика Министерство здравоохранения республики Узбекистан. Отдел конфиденциального разбора материнской смертности республиканского перинатального центра – г. Ташкент. 2017.
4. Федорова Т.А, Рогачевский О.В, Стрельникова Е.В. и др. Массивные акушерские кровотечения при предлежании и вращении плаценты: взгляд трансфузиолога. Журнал им. Н.В. Склифосовского Неотложная медицинская помощь. 2018; 7(3): 253-259. DOI: 10.23934/2223-9022-2018-7-3-2253-259



5. Blomberg M. Maternal obesity and risk of postpartum hemorrhage. *Obstet Gynecol.* 2011; 118(3): 561-568. PMID: 21860284. DOI: 10.1097/ AOG.0b013e31822a6c59
6. COCHRANE COLLABORATION
«Применение антифибринолитиков для минимизации периперационной аллогенной гемотрансфузии» David A Henry, Paul A Carless, Annette J Moxey, Dianne O'Connell, Barrie J Stokes, Dean A Fergusson, Katharine Ker. 2011
7. Global Causes of Maternal Death: A WHO Systematic Analysis.
8. Say L, Chou D, Gemmill A, Tunçalp Ö, Moller AB, Daniels JD, et al. *Lancet Global Health.* 2014;2(6): e323-e333.
9. O'Brien KL, Uhl L. How do we manage blood product support in the massively hemorrhaging obstetric patient? *Transfusion.* 2016; 56(9): 2165-2171. PMID: 27488384. DOI: 10.1111/trf.13753.
10. Национальный комитет по конфиденциальному исследованию случаев материнской смерти. Ташкент 2017г